PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI KONTEKSTIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA MATNLARNI TANQIDIY TAHLIL QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Davronova Noila Nurmamatovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti
tel: +998994140080
davrnovanoila@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (PISA) kontekstida ingliz tili darslarida o‘quvchilarning matnlarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etiladi. PISA dasturining o‘qish savodxonligi modelidagi “mulohaza yuritish va baholash” (reflect and evaluate) jarayonining mazmuni va tarkibiy qismlari – matn mazmunini va shaklini baholash tahlil qilinadi. Shuningdek, chet tili ta’limida tanqidiy savodxonlikni shakllantirishning zamonaviy nazariy modellari (To‘rt resurs modeli, sintezlovchi yondashuv, EFL tanqidiy savodxonlik modeli) ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonning PISA-2022 dasturidagi natijalari asosida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, xususan tanqidiy tahlil ko‘nikmalari darajasi tahlil qilinib, muammoning dolzarbligi asoslanadi. Maqola natijalari mavzu bo‘yicha keyingi empirik-metodik tadqiqotlar uchun nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *PISA, o‘qish savodxonligi, tanqidiy tahlil, tanqidiy fikrlash, tanqidiy savodxonlik, mulohaza yuritish va baholash, chet tili o‘qitish metodikasi, funksional savodxonlik.*

Теоретико-методологические основы формирования навыков критического анализа текста на уроках английского языка в контексте международной программы по оценке образовательных достижений учащихся (PISA)

Давронова Ноила Нурмаматовна,
магистрант Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: *В данной статье исследуются теоретико-методологические основы формирования у учащихся навыков критического анализа текста на уроках английского языка в контексте Международной программы по оценке образовательных достижений учащихся (PISA). Анализируются содержание и структурные компоненты процесса “рефлексия и оценка” (reflect and evaluate) в модели читательской грамотности PISA – оценка содержания и формы текста. Рассматриваются современные теоретические модели формирования критической грамотности в обучении иностранному языку (модель четырёх ресурсов, синтезирующий подход, EFL-модель критической грамотности). На основе результатов Узбекистана в PISA-2022 анализируется уровень читательской грамотности учащихся, в частности навыков критического анализа, что обосновывает актуальность проблемы. Результаты статьи служат теоретической основой для дальнейших эмпирико-методических исследований по данной теме.*

Ключевые слова: *PISA, читательская грамотность, критический анализ, критическое мышление, критическая грамотность, рефлексия и оценка, методика обучения иностранному языку, функциональная грамотность.*

Theoretical and methodological foundations of developing critical text analysis skills in english language lessons in the context of the programme for international student assessment (PISA)

Davronova Noila Nurmamatovna,
Master's student, Uzbekistan State World Languages University

Abstract: *This article examines the theoretical and methodological foundations of developing students' critical text analysis skills in English language lessons within the context of the Programme for International Student Assessment (PISA). It analyzes the content and structural components of the "reflect and evaluate" process in the PISA reading literacy model – evaluating the content and form of a text. The article also reviews contemporary theoretical models for developing critical literacy in foreign language education, including the Four Resources Model, the synthesizing approach, and the EFL model of critical literacies. Drawing on Uzbekistan's PISA 2022 results, the article analyzes students' reading literacy level, particularly their critical analysis skills, thereby substantiating the relevance of the problem. The findings serve as a theoretical foundation for further empirical and methodological research on this topic.*

Keywords: *PISA, reading literacy, critical analysis, critical thinking, critical literacy, reflect and evaluate, foreign language teaching methodology, functional literacy.*

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, xususan o'quvchilarning funksional savodxonligini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish borasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu borada Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan har uch yilda o'tkaziladigan Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA) muhim mezon vazifasini o'taydi.

2023-yilda e'lon qilingan PISA-2022 natijalariga ko'ra, O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi **336 ballni** tashkil etib, OECD mamlakatlari o'rtacha ko'rsatkichi (**476 ball**)dan sezilarli darajada **140 ballga past** bo'lgan hamda ishtirokchi 80 davlat orasida **79-o'rinni** egallagan [10]. Yanada tashvishlirog'i, o'quvchilarning atigi **14 foizi** o'qish savodxonligi bo'yicha minimal (2-daraja) chegaraga yetgan, xalqaro miqyosda esa bu ko'rsatkich 74 foizni tashkil etadi; yuqori (5–6-daraja) natija ko'rsatgan o'quvchilar ulushi esa **0 foizni** tashkil etdi [10]. Bu ma'lumotlar o'quvchilarning matnni shunchaki "o'qiy olishi"dan ko'ra, uni tanqidiy tahlil qilish, baholash va real hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligidan dalolat beradi. Quyidagi 1-jadvalda mamlakatimiz o'quvchilarining uchta asosiy yo'nalish bo'yicha qayd etgan aniq ballari va xalqaro o'rtacha ko'rsatkichlar solishtirilgan.

S.Jumayeva [5] ta'kidlaganidek, O'zbekiston ta'lim tizimidagi asosiy muammolardan biri ta'lim mazmunining real hayot amaliyoti bilan bog'liqligining sustligi hamda o'quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlantirilmaganligidir. Ingliz tili darslarida ham xuddi shunday holat kuzatiladi: an'anaviy o'qitish amaliyotida asosiy e'tibor grammatik qoidalarni yodlash va matn mazmunini qayta aytib berishga qaratilgan bo'lib, matnni tanqidiy baholash, muallif nuqtai nazarini aniqlash, dalillarning ishonchliligini tekshirish kabi yuqori tafakkur darajasidagi ko'nikmalarga yetarlicha e'tibor berilmaydi [3].

Shu bois, PISA dasturining nazariy-metodologik asoslarini, xususan, uning "mulohaza yuritish va baholash" (reflect and evaluate)

1-jadval.

O‘zbekistonning PISA-2022 tadqiqotidagi natijalari qiyosiy tahlili [3, 10]

№	Savodxonlik yo‘nalishlari	O‘zbekiston balli	OECD o‘rtacha balli	Xalqaro farq
1	Matematik savodxonlik (Mathematical Literacy)	364 ball	472 ball	-108 ball
2	Tabiiy-ilmiy savodxonlik (Scientific Literacy)	355 ball	485 ball	-130 ball
3	O‘qish savodxonligi (Reading Literacy)	336 ball	476 ball	-140 ball

jarayonini chuqur o‘rganish hamda ushbu jarayonni ingliz tili darslarida amaliy ravishda shakllantirish mumkin bo‘lgan nazariy modellarni tizimlashtirish dolzarb ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – PISA dasturi kontekstida ingliz tili darslarida o‘quvchilarning matnlarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini tizimli tahlil qilish va ularni umumlashtirishdan iborat.

1. Tayanch tushunchalar tahlili: “tanqidiy tafakkur”, “tanqidiy savodxonlik” va “o‘qish savodxonligi”

Tanqidiy tafakkur tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarida turlicha talqin qilinadi. Facione [3] tomonidan ishlab chiqilgan mashhur ta’rifga ko‘ra, tanqidiy tafakkur – bu maqsadli, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mulohaza yuritish jarayoni bo‘lib, uning natijasida talqin, tahlil, baholash va xulosa chiqarish, shuningdek ushbu mulohazaning dalillarga, kontseptual, metodologik, mezoniy yoki kontekstual asoslarga muvofiqligini izohlash amalga oshiriladi. Ennis [2] esa tanqidiy tafakkurni nimaga ishonish yoki nima qilish kerakligi haqida qaror qabul qilishga qaratilgan mantiqiy va introspektiv fikrlash sifatida ta’riflaydi.

“Tanqidiy savodxonlik” (critical literacy) tushunchasi esa tanqidiy tafakkurni til va matn bilan ishlash kontekstiga tatbiq etadi. Luke va Freebodyning [7] “To‘rt resurs modeli” (Four Resources Model)ga ko‘ra, malakali o‘quvchi to‘rt xil “o‘quvchi rolini” – kod hal qiluvchi, mazmun tuzuvchi, matn foydalanuvchisi va matn tanqidchisi rolini bajara olishi kerak. Aynan so‘nggi rol – matnni ijtimoiy mahsulot sifatida ko‘rib, uning ortida turgan qadriyat va mafkuralarni aniqlash tanqidiy tahlil ko‘nikmalarining mohiyatini tashkil etadi.

Xorijiy tilni chet til sifatida o‘rganuvchilar (EFL) uchun bu model bir qator o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki til vositalarining o‘zi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Shu sababdan Suh va Huh [11] L1 kontekstida ishlab chiqilgan modellarni EFL sharoitiga moslashtirib, uch komponentli “til va tanqidiylik”, “hissiyot va tanqidiylik”, “fuqarolik va tanqidiylik” komponentlaridan iborat integratsiyalashgan modelni taklif etishgan. Ushbu model tilni o‘zlashtirish jarayoni bilan tanqidiy tafakkurni rivojlantirish jarayonini bir vaqtning o‘zida, bir-birini to‘ldiruvchi tarzda olib borish zarurligini asoslaydi.

2. PISA dasturida “mulohaza yuritish va baholash” jarayonining tuzilishi

PISA dasturining o‘qish savodxonligi kontseptual asosiga ko‘ra [8], o‘qish jarayoni uchta asosiy kognitiv jarayonni o‘z ichiga oladi: 1) ma‘lumotni topish (access and retrieve); 2) tushunish va sharhlash (integrate and interpret); 3) mulohaza yuritish va baholash (refle-

ct and evaluate). Aynan uchinchi jarayon eng yuqori kognitiv darajani talab qiladi, chunki u o‘quvchidan matndan tashqaridagi bilim, tajriba va qarashlarni jalb qilib, matnda berilgan ma‘lumotni o‘zining kontseptual va tajribaviy asoslariga bog‘lashni talab qiladi [8].

“Mulohaza yuritish va baholash” jarayoni ikki tarkibiy qismga ega: birinchisi – matn mazmunini baholash, ya‘ni bayon etilgan fikrlarning ishonchliligi, asoslanganligi va dolzarbligini tekshirish; ikkinchisi – matn shaklini baholash, ya‘ni muallifning uslubiy, kompozitsion va ritorik tanlovlarining matn ta‘sirchanligiga qay darajada xizmat qilishini tahlil qilish.

PISA dasturining rasman e’lon qilingan namunaviy topshiriqlari (masalan, “Graffiti” birligi) [9] aynan ushbu ikki jihatni alohida-alohida o‘lchashga mo‘ljallangan: bir savol o‘quvchidan ikki qarama-qarshi fikrdan qaysi biriga qo‘shilishini asoslashni (mazmun bo‘yicha baholash), boshqa savol esa mazmundan qat‘i nazar qaysi matn uslubiy jihatdan kuchliroq yozilganligini aniqlashni (shakl bo‘yicha baholash) talab etadi. Ushbu ikki jihatning ajratilishi metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega, chunki u o‘qituvchiga tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini alohida-alohida, bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi maktablar negizida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 102 nafar 10-sinf o‘quvchisi ishtirok etdi. Guruhlar taqsimoti 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Eksperimentda ishtirok etgan guruhlar va o‘quvchilar kontingenti tavsifi

Guruhlar	Maktablar	O‘quvchilar	Yuklama	Metodika
Tajriba guruhi (TG)	Shayxontohur tumani 19-maktab	52 nafar	3 soat/hafta	PISA talablariga asoslangan model
Nazorat guruhi (NG)	Shayxontohur tumani 169-maktab	50 nafar	3 soat/hafta	Amaldagi standart milliy dastur

Tajriba guruhida qo‘llanilgan metodika PISA tomonidan rasman e’lon qilingan, ikki qarama-qarshi nuqtai nazarni taqqoslashga asoslangan matn namunalari (masalan, “Graffiti” birligi) [9] hamda Janks [4] tomonidan taklif etilgan sintezlovchi model va Le va Nguyen [6] tomonidan asoslangan konstruktivistik-hamkorlikdagi o‘qish faoliyati tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi.

4. Tahlil va natijalar (Analysis and Results)

12 haftalik tajriba-sinov ishlari yakunida o‘quvchilarning tanqidiy tahlil ko‘nikmalari ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganildi. Pre-test va Post-test natijalarining umumlashtirilgan ko‘rinishi 3-jadvalda aks etgan.

3-jadval.

Guruhlarning Pre-test va Post-test natijalari qiyosiy tahlili

Guruh	Bosqich	Soni (n)	O‘rtacha ball (X)	Standart og‘ish	O‘sish (Δ)
Tajriba guruhi (TG)	Pre-test / Post-test	52	48.6 -> 67.5	7.4	+18.9 ball
Nazorat guruhi (NG)	Pre-test / Post-test	50	47.9 -> 51.4	7.9	+3.5 ball

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, an’anaviy darslik va metodika asosida tahsil olgan Nazorat guruhida (NG) o‘rtacha ball darslar davomida atigi 47.9 balldan 51.4 ballgacha (+3.5 ball) o‘sgan xolos. Aksincha, PISA va tanqidiy savodxonlik modellariga asoslangan metodika qo‘llanilgan Tajriba guruhida (TG) o‘rtacha ko‘rsatkich 48.6 balldan 67.5 ballgacha ko‘tarilib, sof o‘sish 18.9 ballni tashkil etdi.

5. Ingliz tili ta’limida tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy modellari

Xorijiy tadqiqotlarda chet tili o‘qitishda tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishga turlicha nazariy yondashuvlar mavjud. Janks [4] tomonidan taklif etilgan sintezlovchi model to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent hokimiyat (power), kirish imkoniyati (access), xilma-xillik (diversity) va dizayn (design)ni birlashtirib, o‘quvchini nafaqat matnni tanqidiy o‘qishga, balki yangi, muqobil matnlar yaratishga ham yo‘naltiradi.

Le va Nguyen [6] tomonidan olib borilgan tajriba-sinov tadqiqotida konstruktivistik yondashuv asosida tashkil etilgan o‘qish darslari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlarini an’anaviy, o‘qituvchi markazidagi darslarga nisbatan sezilarli darajada oshirgani (tajriba guruhida o‘rtacha o‘sish 1,71 ball, nazorat guruhida 0,71 ball) aniqlangan. Tadqiqot natijalari o‘quvchi faolligiga asoslangan, hamkorlikda ishlashni rag‘batlantiruvchi darslarning tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda an’anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, PISA dasturining “mulohaza yuritish va baholash” jarayoni bilan zamonaviy tanqidiy savodxonlik nazariyalari (To‘rt resurs modeli, sintezlovchi model, EFL tanqidiy savodxonlik modeli) o‘rtasida uzviy metodologik bog‘liqlik mavjud: ikkala yondashuv ham o‘quvchidan matnni passiv qabul qiluvchi emas, balki uning mazmuni va shaklini faol, asoslangan tarzda baholovchi sub‘ekt bo‘lishni talab etadi [4, 6, 7, 11].

O‘tkazilgan nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili darslarida o‘quvchilarning matnlarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi PISA dasturining “mulohaza yuritish va baholash” jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon matn mazmuni va shaklini alohida-alohida baholashni o‘z ichiga olgan ikki komponentli tuzilishga ega. O‘zbekistonning PISA-2022 dasturidagi natijalari (o‘rtacha 336 ball, 79-o‘rin, o‘quvchilarning atigi 14 foizi minimal darajaga erishgani) ushbu ko‘nikmalarni maqsadli va tizimli ravishda shakllantirish zaruratini yaqqol ko‘rsatib turibdi [10].

Tahlil qilingan xorijiy nazariy modellar [4, 7, 11] hamda konstruktivistik yondashuv samaradorligini isbotlovchi empirik tadqiqotlar [6] ingliz tili darslarida tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishning yaxlit metodik tizimini ishlab chiqish uchun ishonchli nazariy poydevor yaratadi. Ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlarda mazkur nazariy asoslarga tayangan holda, PISA namunaviy topshiriqlari tuzilishiga mos, mahalliy ta‘lim sharoitiga moslashtirilgan konkret didaktik topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali tekshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djalilov, K. PISA-2022 results: implications for language and literature education in Uzbekistan // Science and Innovation. – 2024. – Vol. 3, № 9. – P. 4–10. DOI: 10.5281/zenodo.13834636.

2. Ennis, R.H. A logical basis for measuring critical thinking skills // Educational Leadership. – 1985. – Vol. 43, № 2. – P. 44–48.

3. Facione, P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. – Millbrae, CA: California Academic Press, 1990.

4. Janks, H. Literacy and Power. – New York: Routledge, 2010.

5. Jumayeva, S. The PISA international assessment system and the analysis of problems in Uzbekistan's education // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2026. – Vol. 6, № 2.

6. Le, H.V., Nguyen, L.Q. Constructivism-based instruction and the development of critical thinking and reading among EFL learners // Frontiers in Education. – 2024.

7. Luke, A., Freebody, P. Further notes on the four resources model // Reading Online. – 1999.

8. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019.

9. OECD. PISA 2018 Released Reading Literacy Items ("Graffiti" unit, R081Q05, R081Q06A, R081Q06B). – Paris: OECD Publishing, 2019.

10. OECD. PISA 2022 Results (Volume I and II) – Country Notes: Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2023.

11. Suh, Y.-M., Huh, S. An EFL model of critical literacies: adapted and synthesized for foreign language contexts // English Teaching. – 2023. – Vol. 78, № 4.